

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL
MAKTABGACHA TA’LIMDA O‘YIN FAOLIYATI VA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

Qarshiyeva Zulfiya Shukurovna

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin faoliyatining pedagogik ahamiyati hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bolalar rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘yin asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligi va uning bolalarning intellektual, ijtimoiy hamda ijodiy rivojlanishiga ta’siri yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, o‘yin faoliyati, pedagogik texnologiya, ta’lim jarayoni, bolalar rivojlanishi, innovatsion metodlar.

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическое значение игровой деятельности в системе дошкольного образования, а также роль современных педагогических технологий в развитии детей. Также рассматривается эффективность образовательного процесса, организованного на основе игры, и его влияние на интеллектуальное, социальное и творческое развитие детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, игровая деятельность, педагогические технологии, образовательный процесс, развитие детей, инновационные методы.

Abstract: This article analyzes the pedagogical significance of play-based activities in the preschool education system and the role of modern pedagogical technologies in child development. Furthermore, it highlights the effectiveness of the educational process organized on the basis of play and its impact on children's intellectual, social, and creative development.

Keywords: preschool education, play-based activity, pedagogical technology, educational process, child development, innovative methods.

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarning tafakkuri, nutqi, tasavvuri va ijtimoiy ko‘nikmalari faol rivojlanadi. Shu



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

sababli maktabgacha ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda o‘yin faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiiy faoliyat turi hisoblanib, u orqali bola atrof-muhitni anglaydi, yangi bilimlarni egallaydi hamda ijtimoiy tajriba orttiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, o‘yin bolalarning: tafakkurini rivojlantiradi, nutq faoliyatini boyitadi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘yin orqali bolalarda jamoada ishlash, o‘z fikrini ifodalash hamda muammolarni hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida didaktik o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, rolli o‘yinlar kabi turli xil o‘yinlardan foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayonini oldindan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Maktabgacha ta’limda quyidagi pedagogik texnologiyalar keng qo‘llaniladi: interfaol metodlar, muammoli ta’lim texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi. Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu bosqichda bola shaxsining asosiy sifatleri shakllanadi. Shu boisdan ta’lim jarayonini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan qaralganda, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o‘yin faoliyati asosiy vosita sifatida e’tirof etiladi. Chunki bola o‘yinda erkin harakat qiladi, o‘z fikrini bemaol ifodalaydi va yangi bilimlarni oson o‘zlashtiradi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni o‘yin bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyati kengaymoqda.

Ushbu texnologiyalar yordamida bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi va ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi.

O‘yin kishilarning mehnat madaniyati paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiga aylangan tarixiy bosqichida vujudga kelgan. O‘yinlar ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir. Ko‘plab

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

mamlakatlarning olimlari va pedagoglari o‘yinlar mohiyatini, uning kelib chiqishi, rivojlanishi va ahamiyatini o‘rganmoqdalar. Shunga ko‘ra o‘yinning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli xil nazariyalar, fikrlar va qarashlar ham mavjud. D.B.Elkonin o‘yin va san’atning kelib chiqishini tatbiq qilib “ Ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini hamda boshqa jiddiy faoliyat turlarini o‘yinlarda ifodaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizliklarni o‘yin sifatida o‘ynash ularga ov jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni hamda muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini aniqlashga yordam bergan” degan xulosaga keldi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, ovdan oldingi tayyorgarlik sifatidagi o‘yin jarayonida ibtidoiy odamlar o‘ljaga yaqinlashishni so‘ngra uni osongina qo‘lga tushirishni o‘rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirishgan, uning yurish-turishlari, xatti harakatlari mashq qilingan, ularning tovush chiqarishlari o‘rganilgan.

Ana shunday o‘yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o‘rgatishgan. Shu bois o‘yinlar o‘ziga mos maktab vazifasini o‘tab, bir tomondan, ovchilik mahoratini o‘stirishga yordam bergan. Bolalar o‘yinlari asosan ikki vazifani bajaradi: - bolaning ishtiyoqini oshirish, estetik zavq berish va ko‘ngil ochish. - bolaga o‘yin jarayoni orqali ta’lim va tarbiya berish. Bolalar o‘yinlari mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. O‘yinchoqli o‘yinlar. Bu o‘yin asosan maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlaridir. (Sodda o‘yinchoqlar, kubik, shiqildoqlar)

2. Voqeaband o‘yinlar. Bolalar voqeaband o‘yinlarda kattalar faoliyatiga taqlid qiladilar. Bola ulg‘aygan sari ularning voqeaband o‘yinlari ham murakkablasha boradi. (“Doktor-doktor”, “Qo‘shni-qo‘shni”) kabi o‘yinlar kiradi.

3. Harakatli o‘yinlar bolalar sog‘ligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning faolligi va harakatchanligini oshiradi. Bu o‘yinlar sirasiga “oq terakmi-ko‘k terak?”, koptok o‘ynash va boshqalar kiradi.

4. Didaktik o‘yinlar (“Ortiqchasini to‘p”, “Rangli yo‘l”)

Maktabgacha ta’limda pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish jarayonida, dunyoning yetakchi mamlakatlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Xususan, Singapur va Finlyandiya kabi davlatlarning maktabgacha ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlari va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash tajribalari bu boradagi ilmiy fikrlarni yanada boyitadi. Singapur ta’lim tizimi butun dunyoda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishdagi yutuqlari bilan tanilgan. Singapurlik olimlar, ayniqsa, Tan, T. (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, maktabgacha ta’limda texnologiyalarning rolini keng ochib beradi.

T.Tan o‘zining “Pedagogik texnologiyalar va bolalar rivojlanishidagi innovatsiyalar” nomli maqolasida, pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta’limda qo‘llashning ijtimoiy va intellektual rivojlanishga ta’sirini o‘rganadi. U o‘qitish jarayonida interfaol metodlar, kompyuter texnologiyalari, o‘yinli yondashuvlar kabi zamonaviy texnologiyalarning bolalar uchun muhim o‘quv resurslari ekanligini ta’kidlaydi.

Singapurda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar bolalarning tasavvurini kengaytirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o‘z-o‘zini ifoda etish imkoniyatlarini oshirishda samarali qo‘llanadi. Tan, pedagogik texnologiyalar nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki bolalarni o‘z qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda rivojlantirishga yordam beradi, deb hisoblaydi. Finlyandiya ta’lim tizimi ham dunyodagi eng ilg‘or tizimlardan biri sifatida tanilgan, ayniqsa, maktabgacha ta’limdagi pedagogik texnologiyalarga bo‘lgan yondashuvi bilan. Kansanen (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, Finlyandiya maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning asosiy tamoyillari tahlil qilingan. Kansanen, maktabgacha ta’limda texnologiyalarni bolalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda, ayniqsa, ularning kreativligini oshirishda ishlatish zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta’limda o‘yin faoliyati hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi o‘rganildi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘yin asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning bilish faolligini oshiradi va ularning ta’lim jarayoniga qiziqishini kuchaytiradi. An’anaviy usullarga nisbatan o‘yinli yondashuv bolalarni faol ishtirok etishga undaydi. Tajriba davomida didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, harakatli o‘yinlar hamda interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanildi. Vizual materiallar, multimediali taqdimotlar, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning tafakkurini, ijodiylikini va mustaqil fikrlashini rivojlantirdi.



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

O‘yin faoliyatini pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Integratsiya natijasida:

- bolalarda o‘rganishga qiziqish ortadi;
- bilimlar mustahkam o‘zlashtiriladi;
- ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Masalan:

- interaktiv o‘yinlar orqali bilim berish;
- rolli o‘yinlarni muammoli vaziyatlar bilan boyitish;
- ertak asosida sahnalashtirilgan o‘yinlar tashkil etish.

O‘yin orqali bolalar jamoada ishlash, hamkorlik qilish hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini egalladilar.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki: bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishi ortdi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlandi, jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllandi, ijodiy faoliyatga moyillik kuchaydi, ta’lim jarayonida faollik oshdi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitilgan o‘yinlar bolalarning diqqatini jalb etib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirdi. Tahlillar natijasida o‘yin faoliyati va pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim jarayonida o‘yin faoliyati yetakchi pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va bolalarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, didaktik o‘yinlar va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘yin faoliyatini pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish bolalarda mustaqillik va ijodiylikni shakllantiradi.

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘un holda qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi hamda bolalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Poprovskiy E.A. O‘yin faoliyatining pedagogik asoslari. – Moskva, 1989.
2. Tan T. Pedagogical technologies and innovations in child development. – Singapore, 2018.
3. Kansanen P. Early childhood education and pedagogical technologies. – Finland, 2017.
4. Maktabgacha ta’lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>
5. <https://share.google/aDtoTBmiTKqlY9Jy5>